

**“TASDIQLAYMAN”**  
**“Transport ilmiy-tadqiqot markazi”**  
**MCHJ ta’ sischisi**



**O‘zbekiston Respublikasi**  
**Transport vaziri**

**I.R. Maxkamov**

2023-yil “ \_\_\_ ” \_\_\_\_\_

**“Transport ilmiy-tadqiqot markazi”**  
**mas’uliyati cheklangan jamiyatining**

**2024-yil uchun**

**B I Z N E S R E J A S I**

Davlat nomidan (ishtirokchi, ta’ sischi)  
funktsiyasini bajaruvchi tashkilot nomi

**O‘zbekiston Respublikasi Transport**  
**vazirligi**

Pochta manzili, e-xat manzili  
(yoki elektron pochta manzili)

**100000, Toshkent sh., Shayxontoxur**  
**tumani, Zulfiyaxonim ko‘chasi, 3-uy.**  
**e-mail: info@titim.uz**

STIR

**202 269 195**

Ijroiya organi rahbari

**Iminov Umidjon Muradjanovich**

Moliya-iqtisod va  
ta’rif bo‘limi boshlig‘i

**Ataxanova Xilola Matyakubovna**

**Toshkent – 2023 yil**

## MUNDARIJA

### **I-bob “Transport ilmiy-tadqiqot markazi” mas’uliyati cheklangan jamiyat to‘g‘risida ma’lumot**

- 1.1. Markaz rekvizitlari (umumiy ma’lumotlar, jamiyat pasporti).
- 1.2. Markazning ustuvor yo‘nalishlari
- 1.3. Markaz boshqaruv va ijroiya organi a’zolari.
- 1.4. Kadrlar siyosati, ishchi-xodimlar to‘g‘risida ma’lumot.
- 1.5. Xodimlarni boshqarish va rivojlanish istiqbollari
- 1.6. Mutaxassislarni tayyorlash

### **II-bob Korxonani isloh qilish**

- 2.1. “Transport ilmiy-tadqiqot markazi” MCHJning 2023-yilda erishgan natijalari.
- 2.2. 2023-yil yakuniga qadar Markaz laboratoriyalari tomonidan amalga oshirilgan ishlar.
- 2.3. Soha faoliyatini raqamlashtirish.
- 2.4. “Transport ilmiy-tadqiqot markazi” MCHJ bo‘lim va laboratoriyalarining 2024-yilga mo‘ljallangan rejalari.
- 2.5. Ilmiy-tadqiqot va ilmiy ishlab chiqarish faoliyatini takomillashtirish.

### **III-bob Moliyaviy ko‘rsatkichkar**

- 3.1. Xodimlarning ish haqi. Mehnatga haq to‘lash tizimi.
- 3.2. Samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlari KPI.
- 3.3. Daromadlar shakllanishining asosiy ko‘rsatkichlari.

### **IV-bob. Xavf-xatarni baholash.**

- 4.1. Xavf-xatarni baholash. Faoliyatni sug‘urtalash

## **I-bob “Transport ilmiy-tadqiqot markazi” mas’uliyati cheklangan jamiyat to’g’risida ma’lumot**

### **1.1. Markaz rekvizitlari va umumiy ma’lumotlar.**

Markaz 1997-yilda tashkil topgan bo’lib, “Transport ilmiy-tadqiqot markazi” mas’uliyati cheklangan jamiyat – O‘zbekiston transport tizimi bo‘yicha keng ko‘lamli tadqiqotlarga ega yagona ilmiy markaz hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-iyundagi PF-94-son Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 6-oktabrdagi 279-son qarori bilan tasdiqlangan, Davlat korxonalari va davlat muassasalarini xo‘jalik jamiyatlariga o‘zgartirish tartibi to‘g‘risida”gi nizomga asosan “O‘zavtotranstexnika” ilmiy ishlab chiqarish markazi davlat unitar korxonasi Transport ilmiy-tadqiqot markazi mas’uliyati cheklangan jamiyat shaklida 2023-yil 18-iyuldan faoliyat yurita boshladi.

Respublikada transport sohasi bo‘yicha ixtisoslashtirilgan ilmiy markazni tashkil etishning asosiy sharti O‘zbekiston aniq belgilab berilgan, rivojlanishi bilan tasdiqlangan qulay istiqbollari edi. Transport tizimi ishlari jadal sur‘atlar bilan rivojlana boshladi. Transport yo‘nalishing ilmiy asosiligi to‘g‘risidagi keng ko‘lamli ma’lumotlarni umumlashtirish va ilmiy tahlil qilish zarurati tug‘ildi.

Jamiyat yuridik shaxs bo‘lib, ustavi va O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi asosida faoliyat yuritadi.

“Transport ilmiy-tadqiqot markazi” mas’uliyati cheklangan jamiyat yuqori intellektual salohiyat, olim va mutaxassislarining boy ilmiy-amaliy tajribasi, zamonaviy texnik jihozlar va tadqiqot usullarini o‘zida mujassam etgan keng ko‘lamli ilmiy-tadqiqot ishlariga ega bo‘lgan O‘zbekistonning transport sohasi bo‘yicha yirik ilmiy-tadqiqot markazi. Markaz tuzilmasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi PQ-111-son “Ma‘muriy islohotlar doirasida transport sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan tashkil etilgan Loyiha ofisi mavjud.

Markaz transport sohasida texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarni ishlab chiqish, ilmiy tadqiqotlar, tajriba-sinov, loyihalash va ekspertiza ishlarini o‘tkazish, standartlash, sertifikatlashtirish va transport tizimini modellashtirish ishlarini amalga oshiradi. Ustavda boshqa tijorat xizmatlarini ko‘rsatish ham belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi transport tizimi va boshqa tashkilotlarning talabiga binoan transport amaliy tadqiqotlar bo‘yicha vazifalarni amalga oshiradi. Transport sanoati uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ilmiy kadrlar malakasini oshirish, shuningdek, ularning mehnatini rag‘batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Transport sohasida xizmat ko‘rsatish uchun aniq maqsadlar belgilangan.

Markaz bo‘limlarini modernizatsiya, texnik qayta jihozlash va laboratoriya tadqiqotlarini o‘tkazish faoliyatini kengaytirish uchun zamonaviy asbob-uskunalar

va jihozlangan bilan, korxonada xodimlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha ishlarni kuchaytirish rejalashtirilgan.

Korxonada nomi	To'liq	Qisqartirilgan
O'zbek tilida	"Transport ilmiy-tadqiqot markazi" mas'uliyati cheklangan jamiyati	"TITM" MCHJ
Rus tilida	Общество с ограниченной ответственностью "Научно-исследовательский центр транспорта"	ООО "НИЦТ"
Ingliz tilida	"Transport Scientific Research Center" Limited Liability Company	"TRC" LLC

**Tashkiliy-huquqiy shakli:** Mas'uliyati cheklangan jamiyat

**Faoliyat turi:** Transport sohasida texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ-hujjatlarni ishlab chiqish, ilmiy-tadqiqot ishlarini o'tkazish.

**Tarmoq:** Transport

**Yuridik manzili:** O'zbekiston Respublikasi, 100128 Toshkent sh., Shayhontoxur tumani, Zulfiyaxonim ko'cha, 3-uy. Veb.sayt: www.titm.uz

**Ustav kapitali:** 76 120 927 (yetmish olti million bir yuz yigirma ming to'qqiz yuz yigirma yetti) so'm.

**STIR:** 202 269 195

**Hisob raqami va xizmat ko'rsatuvchi banki:** "Ipoteka bank"ning Yunusobod filiali, hisob raqami: 20 208 000 201 949 884 001 MFO: 00837.

Jamiyat o'z maqsadlariga erishish uchun faoliyat va xizmat ko'rsatishning quyidagi turlarini amalga oshiradi:

- transport sohasida texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ-hujjatlarni ishlab chiqish;
- ilmiy-tadqiqot ishlarini o'tkazish;
- tajriba-sinov ishlarini olib borish;
- loyihalash ishlarini olib borish;
- transport vositalarining texnik holati, normativ hujjatlar loyihalari hamda transport sohasida boshqa turdagi ekspertiza ishlarini o'tkazish;
- transportda standartlashtirish ishlarini olib borish;
- transport vositalari va ularning komponentlarini sertifikatlashtirish ishlarini olib borish;
- transport tizimini modellashtirish ishlarini amalga oshirish.

## 1.2. Quyidagi yo'nalish dasturlari doirasida Markazning ustuvor yo'nalishlarini asoslaydi:

1. Markazning reja dasturlarini ishlab chiqish;
2. Ustuvor yo'nalishlarni asoslash;
3. Rejalarni ilmiy jihatdan ta'minlash;
4. Transport tizimini tartibga soluvchi asosiy ko'rsatmalar va me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish;

5. Markazning ilmiy izlanishlarini samarali ilmiy ta'minlashga qaratilgan.

### 1.3. Jamiyat boshqaruv va ijroiya organi a'zolari.

Jamiyatning boshqaruv organi sifatida quyidagilar belgilanadi:

- jamiyat muassisi – oliy boshqaruv organi;
- kuzatuv kengashi;
- direktor – Jamiyatning ijro etuvchi organi.

**Jamiyatning oliy boshqaruv organi** Jamiyat faoliyatining asosiy yo'nalishlarini belgilash, shuningdek tijorat tashkilotlarining boshqa birlashmalarida ishtirok etish to'g'risida qaror qabul qilish;

Jamiyat ustav fondining miqdorini o'zgartirish;

Ta'sis hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;

Har yili Jamiyatning biznes-rejasini tasdiqlash, uning bajarilishi jarayoni to'g'risida ijro etuvchi organing hisobotini tinglash;

Jamiyatning ijro etuvchi organlarini tuzish va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

Jamiyatning kuzatuv kengashi a'zolarini saylash va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

Yillik hisobotlarni va yillik buxgalteriya balanslarini tasdiqlash va boshqarlar.

**Jamiyat kuzatuv kengashi** Kuzatuv kengashi a'zolari o'z huquqlarini amalga oshirishda va majburiyatlarini bajarishda Jamiyat manfaatlarini ko'zlab harakat qiladi hamda qonunda belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

Kuzatuv kengashi a'zolari soni 3 (uch) kishidan iborat bo'ladi.

**Jamiyat kuzatuv kengashining vakolatlari:**

Jamiyatning kuzatuv kengashini tuzish va uning faoliyatini tartibi, shuningdek Jamiyat kuzatuv kengashi a'zolarining vakolatlarini va Jamiyat kuzatuv kengashi raisining vakolatini tugatish tartibi Jamiyat muassisi buyrug'i bilan belgilanadi.

Jamiyat ijro etuvchi organining, uning shu'ba va tobe xo'jalik Jamiyatlari boshqaruv organlarining a'zolari, Jamiyat tomonidan tashkil etilgan unitar korxonaning rahbari hamda ayni shu shu'ba, tobe xo'jalik jamiyatlarida va unitar korxonada mehnat shartnomasi bo'yicha ishlayotgan shaxslar Jamiyat kuzatuv kengashining a'zosi bo'lishi mumkin emas.

**Jamiyat ijro etuvchi organi** Jamiyatning joriy faoliyatiga rahbarlikni amalga oshiruvchi direktor hisoblanadi.

Jamiyat ijro etuvchi organi rahbari (direktor) kuzatuv kengashining tavsiyasi asosida yagona ishtirokchi tomonidan uch yil muddatga saylanadi hamda uning faoliyatini natijalari qoniqarsiz deb baholangan taqdirda muddatidan oldin lavozimidan ozod etilishi mumkin.

Direktor lavozimiga O'zbekiston Respublikasi fuqarosi saylanishi mumkin. Direktor bilan tuzilgan mehnat shartnomasini direktorni saylash to'g'risidagi qarorni qabul qilgan muassis imzolaydi.

Jamiyat direktori, Jamiyat nomidan ishonchnomasiz ish yuritadi, shu jumladan uning manfaatlarini ifodalaydi va bitimlar tuzadi;

Jamiyat xodimlari bilan mehnat shartnomalari tuzadi va ularni bekor qiladi, xodimlarga nisbatan rag'batlantirish choralarini va intizomiy jazolarni qo'llaydi;

Direktor qonunchilik hujjatlari va Jamiyatning ustavi bilan Jamiyat muassisi va Jamiyatning kuzatuv kengashi vakolatlari jumlasiga kiritilmagan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Direktor Jamiyat muassisiga hisobot beradi va uning oldida Jamiyat faoliyatining amalga oshirilishi hamda unga yuklatilgan vazifa va topshiriqlarning bajarilishi uchun javobgar hisoblanadi.

#### **1.4. Kadrlar siyosati, ishchi-xodimlar, to'g'risida ma'lumot.**

Jamiyat ta'sisчисining 2023-yil 27-iyundagi 107-son Buyrug'i bilan tasdiqlangan tashkiliy tuzilmasi (texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlardan tashqari) 50 nafardan iborat.

Markazda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar doirasida Transportda ilmiy-tadqiqotlar boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari Saidumarov Alisher Ravshanovich texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun "Yuk avtomobillarining yonilg'i sarfini atrof-muhitning yuqori haroratida aniqlash usulini takomillashtirish" mavzusida dissertatsiya ishini himoya qildi.

Hozirgi kunda "Transport ilmiy tadqiqot markazi" MCHJda 2023-yil 27-noyabr holatiga texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar bilan 57 nafar ishchi-xodimlar faoliyat yuritmoqda va jami 13 ta vakant ish o'rinlari mavjud. Ulardan boshqaruv xodimlari 10 nafar, asosiy faoliyat yo'nalishidagi mutaxassislar 34 nafar, texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar 12 nafarni tashkil etadi.

Jamiyatda 2023-yil davomida 6 nafar xodimlar malaka oshirish va qayta tayyorlash markazlarida bilim va ko'nikmalarini oshirdilar. Shuningdek 2024-yilda 5 nafar hodimlarni malaka oshirishga yo'naltirish rejalashtirilmoqda.

#### **1.5. Xodimlarni boshqarish va rivojlanish istiqbollari**

Jamiyat Transport universitetining 2022-2023-o'quv yilini tamomlagan 1 nafar talabasi ishga qabul qilindi.

"Transport ilmiy-tadqiqot markazi" MChJ transport sohasida ilmiy-tadqiqot, tajriba-sinov, loyihalash, standartlashtirish va transport tizimini modellashtirish ishlarini olib borish, shuningdek transport vositalarining texnik holati, normativ hujjatlar loyihalari hamda transport sohasida boshqa turdagi ekspertiza ishlarini o'tkazish bo'yicha kadrlar tayyorlash markazlardan biri hisoblanadi.

Markaz yosh mutaxassislarni o'z ilmiy natijalarini amaliyotga tatbiq etishdan manfaatdor qilib tarbiyalash, ko'nikmalarni egallashga ko'maklashish va yosh kadrlarning fan va texnikaning zamonaviy talablariga javob beradigan bilimlarni egallashlarida qo'llab-quvvatlash, kelgusida o'z hissasini qo'shishga qodir bo'lgan maqsadli ishlarni amalga oshirmoqda.

Yoshlar o'rtasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Markaz kasaba uyushmasi tomonidan mini-futbol uchun sport zali ijaraga berish, sport anjomlari xarid qilish, futbol jamoasini shakllantirish rejalashtirilgan. Ayollar va keksa avlod vakillari alohida o'rin tutadi. Kasaba uyushmasi tomonidan

fitnes zali bo'yicha shartnomalar tuzish, keksa avlod vakillari xotin-qizlar, murabbiylar ishtirokida turli tadbirlar o'tkazish rejalashtirilgan.

Hozirda jamoaning o'rtacha yoshi 35 yosh. 50 nafar xodimlar – oliy ma'lumotli, 7 nafar xodimlar – o'rta maxsus, Markazda 4 nafar ayol va 53 nafar erkak mehnat qiladi.

### **1.6. Mutaxassislarni tayyorlash**

Yosh kadrlarning kasbiy, ilmiy salohiyatini oshirish va o'sishi bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish:

1. Mamlakat transport tizimining asosiy yo'nalishlari bo'yicha seminarlarda yosh kadrlar malakasini oshirish.

2. Ixtisoslashtirilgan oliy ta'lim muassasalari bakalavriat va magistratura talabalari uchun amaliy mashg'ulotlar.

3. Markazning yetakchi olim va mutaxassislarning yosh kadrlar bilan ishini ustozlik tarzida kuchaytirish.

4. Ixtisoslashtirilgan oliy o'quv yurtlarining o'quv jarayonlarida faol ishtirok etish, Markazning yetakchi olimlari va mutaxassislari tomonidan talabalar uchun ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar tashkil etish.

5. Ilmiy va dissertatsiya ishlarini himoya qilish doirasida yuqori malakali mutaxassislar, tadqiqotchi stajyorlar va abituriyentlarni tayyorlash. Yuqori malakali kadrlar tayyorlashning erishilgan darajasini prognoz qilish va monitoring qilish.

6. Mutaxassislarning yaqin va uzoq xorij davlatlariga xizmat safarlarini tashkil etish.


7. Mutaxassislarni rag'batlantirish.

8. Xodimlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash.

*“Transport ilmiy-tadqiqot markazi” mas'uliyati jamiyati tashkiliy tuzilmasi ilova qilingan.*

## “Transport ilmiy-tadqiqot markazi” mas’uliyati cheklangan jamiyati

### TUZILMASI



## II-bob. Korxonani isloh qilish

### 2.1. “Transport ilmiy-tadqiqot markazi” MCHJning 2023-yilda erishgan natijalari

O‘zbekiston Respublikasida avtomobil transportida texnik siyosatning ilmiy asoslarini ishlab chiqish;

Issiq iqlim sharoitida avtotransport vositalaridan foydalanish samaradorligini oshirish uslublarini ishlab chiqish;

O‘zbekiston Respublikasi sharoitida **SPG-3**, turdagi gazballonlaridan foydalanishning ilmiy asoslari.

**Xo‘jalik shartnomalari doirasida korxonada va tashkilotlar bilan hamkorlikda tadqiqot ishlari ham olib borilmoqda.**

Jumladan, “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati bilan “Разработка нормативного документа (взамен отмененного нормативного документа Ўз РХ 88.20-01:2003w согласно постановления агентства «Узстандарт» за №05-804 от 13.12.2016 года) определяющий порядок списания и нормирования расхода топлива при эксплуатации автомобильного и подвижного состава и строительно-дорожных машин и согласование его с соответствующими органами” mavzusidagi ishlarni bajarish uchun **2022-yil 31-avgust**da 19/2022-TR-sonli shartnoma imzolangan.

Hozirda NKMK tasarrufidagi avtotransport vositalari va yo‘l-qurilish texnikalari uchun yoqilg‘i sarfi me‘yorlarini o‘rnatish bo‘yicha hujjat loyihasi tayyorlanib NKMK qoshidagi transport boshqarmalari bilan kelishilmoqda. Hozirgi



kunda taraflarning imzolangan hujjatlariga asosan shartnoma bo'yicha bajarilgan ishlarning umumiy hajmi **85 foizni** tashkil qiladi.

## 2.2. 2023-yil yakuniga qadar Markaz laboratoriyalari tomonidan quyidagi ishlar amalga oshirildi:

### Rejadagi amalga oshirilgan ishlar natijalari:

Laboratoriya nomi	Korxon va tashkilotlar	2023-yilda xizmat ko'rsatilgan korxonalar soni				Umumiy shartnomalar soni
		I	II	III	IV	Jami
1- Laboratoriya (Bosib o'tilgan yo'l masofasini o'lchash)	Avtobus saroyi	0	8	0	8	16
	Xususiy korxonona	0	0	2	2	4
2- Laboratoriya (Yoqilg'i sarfi me'yorlarini belgilash)	Korxon va tashkilotlar	13	16	7	24	60
3- Laboratoriya (SPS laboratoriyasi)	Korxon va tashkilotlar	6	7	15	3	31
4- Laboratoriya (Chip karta)	Korxon va tashkilotlar	3945	3208	2956	2448	12557

## 2.3. Soha faoliyatini raqamlashtirish:

Bugungi kunda "Transport ilmiy-tadqiqot markazi" MCHJning zamonaviy dizaynga ega rasmiy veb-sayti takomillashtirilgan tarzda ishlab chiqildi.

Mazkur veb-saytda, markaz faoliyati to'g'risidagi umumiy ma'lumotlar, yangiliklar, tashkiliy tuzilma, ochiq ma'lumotlar, bo'sh ish o'rinlari, markaz bilan bog'lanish imkoniyati va eng asosiysi markaz ish faoliyati bilan bog'liq barcha xizmat turlari hamda ma'lumotlarni shaffof tizim orqali ko'rib borish imkoniyati yaratildi.

**SPS guvohnomalar** reyestri elektron tizimga o'tkazilib, Transport vazirligining rasmiy **veb-sayti** bilan integratsiya qilindi.

Bunda guvohnomaning ustidagi maxsus **QR kod** orqali Transport vazirligining rasmiy **veb-saytida** guvohnoma haqiqiylikini tekshirish imkoniyati yaratildi.

Markaz tomonidan tez buziladigan yuklarni tashish uchun mo'ljallangan har bir avtotransport vositalariga **SPS**ga muvofiq **SPS guvohnomasini** berish faoliyatini amalga oshirish bilan cheklanib qolmay, guvohnoma imkoniyatlarini takomillashtirish va shaffoflashtirish ishlari ham amalga oshirilmoqda.

Talabgor tomonidan **SPS guvohnomasini** olishda, guvohnoma ichiga mahsus **QR kod** joylashtirildi. **QR kodni** skaner qilish orqali Transport vazirligi rasmiy **veb**

saytiga o'tilib **SPS guvohnoma** bo'limidan mazkur **QR kodga** tegishli **SPS guvohnomasini** onlayn tarzda istalgan vaqtda yuklab olish imkoniyati yaratildi.

Shuningdek, **“Transport ilmiy-tadqiqot markazi” mobil ilovasi** ishlab chiqildi.

Markazning zamonaviy dizaynga ega **TITM mobil ilovasi** uchun foydalanuvchilarni biometrik indentifikatsiyadan o'tkazish uchun **UZINFOCOM MCHJ** tomonidan ishlab chiqilgan **MyID platformasi** bilan integratsiya masalalari ijobiy hal etildi. Shuningdek, foydalanuvchilarning avtomobillarni boshqarish huquqini beruvchi guvohnomasi haqiqiylikini tekshirish maqsadida **“Idoralararo integrallashuv platformasi”** bilan integratsiya qilindi va **“BEST INTERNET SOLUTIONS” MCHJ** tomonidan ishlab chiqilgan **ESKIZ platformasida sms** xabarnomalarni yuborish xizmati bo'yicha hamkorlik ishlari yo'lga qo'yildi.

#### 2.4. “Transport ilmiy-tadqiqot markazi” MCHJ bo'lim va laboratoriyalarining 2024-yilga mo'ljallangan rejalari

O'tgan yillar tahlilidan kelib chiqib 2024-yilda Markaz tomonidan quyidagi vazifalarni yanada rivojlantirish orqali asosiy faoliyat samaradorligini oshirish rejalashtirilgan. Jumladan:

##### Transportda ilmiy-tadqiqotlar boshqarmasi:

№	Loyiha nomi	Talab etilayotgan mablag'	Moliyalashtirish manbai
1.	Jamoat transportida yo'lovchilarni tashishni amalga oshirishda aholiga transport xizmatlari ko'rsatish Minimal transport standartini joriy qilish.	609 127 690	Transport vazirligi
2.	Davlat darajasida transport sohasida audit tizimini joriy qilish.	614 886 907	Transport vazirligi
3.	Atrof-muhit va aholi salomatligiga avtotransport vositalarining shovqin darajasi ta'sirini kamaytirish.	294 614 197	Transport vazirligi
4.	Avtomobil transporti va yo'l infratuzilmasi sohasida kompleks intellektual transport tizimlarini joriy qilish bo'yicha tartib ishlab chiqish.	464 225 073	Transport vazirligi
<b>Jami</b>		<b>1 982 853 868</b>	
№	Standart nomi	Talab etilayotgan mablag'	Moliyalashtirish manbai
1.	Intellektual transport tizimlari. Atamalar va ta'riflar. O'zbekiston Respublikasi Milliy standarti loyihasini ishlab chiqish.	115 759 811	Transport vazirligi
2.	Avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi issiq iqlim sharoitlariga moslashuvchanligini baholash. O'zbekiston Respublikasi Milliy standarti loyihasini ishlab chiqish.	112 713 516	Transport vazirligi
<b>Jami</b>		<b>228 473 327</b>	

№	Standart nomi	Talab etilayotgan mablag'	Moliyalashtirish manbai
1.	G'ildirakli transport vositalari. Atamalar va ta'riflar. O'zbekiston Respublikasi Milliy standarti loyihasini ishlab chiqish.	121 852 433	Transport vazirligi
2.	Temir yo'l transporti. Atamalar va ta'riflar. O'zbekiston Respublikasi Milliy standarti loyihasini ishlab chiqish.	107 346 206	Transport vazirligi
3.	Aviatsiya transporti. Atamalar va ta'riflar. O'zbekiston Respublikasi Milliy standarti loyihasini ishlab chiqish.	100 740 285	Transport vazirligi
	<b>Jami</b>	<b>329 938 925</b>	

**Ilmiy-tadqiqotlar sohasida** amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan Jamoat transportida yo'lovchilarni tashishni amalga oshirishda aholiga transport xizmatlari ko'rsatish Minimal transport standartini joriy qilish bo'yicha Urganch shahrida aprobatsiya ishlari amalga oshirilmoqda. Xorazm viloyati transport boshqarmasi tomonidan birlamchi ma'lumotlar olindi va bugungi kunda tahlil ishlari amalga oshirilmoqda.

#### **Transportda tajriba-sinov va sertifikatlashtirish laboratoriyasi:**

1. Markaz laboratoriyasi **2024-yilda** korxonada faoliyatini yaxshilash va faoliyat turini amalga oshirish maqsadida, "**Taxografni ta'mirlash sozlash va kalibrlash yo'nalishi**"ni tashkil qilish, bunda, **OPTIMO 2** planshet qurilmasini xarid qilish va mazkur laboratoriya yo'nalishini **2024-yilning II-chorak** yakunlariga qadar ishga tushirish rejalashtirilgan.

Shuningdek, Transportda tajriba-sinov va sertifikatsiyalashtirish laboratoriyasida "**SPG-3** turdagi gazballonlarni sinovdan o'tkazish" yo'nalishini ochishni tashkillashtirish ko'zda tutilmoqda.

2. Bugungi kunda, **SPS laboratoriya** faoliyatini yanada rivojlantirish maqsadida, Toshkent viloyati, Zangi ota tumanida "**Magistral Diesel service**" **MCHJ**ga tegishli bino hududini ijaraga olish (shartnoma) ishlari amalga oshirilmoqda.

Mazkur belgilangan vazifalarni joriy yilning **I-chorak** yakunlariga qadar yakunlash hamda **SPS laboratoriya** faoliyatini to'liq quvvatlarda ishga tushirish rejalashtirilgan.

#### **2.5. Ilmiy-tadqiqot va ilmiy ishlab chiqarish faoliyatini takomillashtirish**

- o'lchovlar paytida, shuningdek transport tashkilotlari faoliyatida kutilmagan holatlar va favqulodda vaziyatlar uchun xarajatlarni minimallashtirish va asoratlarni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun asbob-uskunalar va texnologiyalarni takomillashtirish sohasida ilmiy tadqiqotlarni kuchaytirish, mijozlar talabidan kelib chiqqan holda, ilmiy tahlilga asoslangan tavsiyalar, tadqiqotlar, tajribalar, ekspertizalarning hisobotlari;

- tegishli texnologik darajada bajarilishi yuqori organlarning ko'rsatmalari va qarorlari, operativ ta'minlash ishlab chiqarish korxonalariga ilmiy, uslubiy va amaliy yordam berish tartibi.

Sifat siyosatini amalga oshirishda Markaz 2024-yilda quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshirish orqali standart sifat menejmenti tizimi talablari asosida ishlashni davom ettiradi va tizim samaradorligini doimiy ravishda oshirib boradi:

- ilmiy-tadqiqot ishlarida zamonaviy texnika va texnologiyalardan yuqori professional darajada foydalanishga qodir yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash tizimini takomillashtirish;

- "ilmiy saytlarni qayta tashkil etish orqali mehnat jarayonining uzluksiz ta'limini faollashtirishga qaratilgan.

### **III-bob. Moliyaviy ko'rsatkichlar**

#### **3.1. Xodimlarning ish haqi. Mehnatga haq to'lash tizimi (Samaradorlikning muhim ko'rsatkichlari KPI)**

##### **Xodimlarning ish haqi. Mehnatga haq to'lash tizimi:**

O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 6-dekabrda 310-II-son Qonuniga, O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga, O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga, Ustavga muvofiq ishlab chiqilgan va mehnatga haq to'lash bilan bog'liq masalalarni tartibga soladi. xodimlarning mehnatiga haq to'lash, shu jumladan, mehnatga haq to'lash tushunchasi, mehnatga haq to'lash turlari va Markaz xodimlarining mukofotlash qoidalari.

Jamiyatda mehnatga haq to'lashning soatbay shakli tizimidan foydalaniladi.

Jamiyatni moliyalashtirish va moddiy-texnik ta'minlash:

Jamiyat tomonidan shartnoma asosida ko'rsatilgan xizmatlar hamda bajarilgan ishlardan tushgan tushumlar;

yuridik va jismoniy shaxslarning xomiylik mablag'lari;

Jamiyatning vaqtincha bo'sh turgan mablag'larini tijorat banklaridagi depozitlarga joylashtirishdan olinadigan daromadlar;

qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

Jamiyat xodimlariga amaldagi qonunchilik hujjatlari muvofiq quyidagi to'lovlar amalga oshiriladi:

lavozim maoshi (okladi);

lavozim maoshiga qo'shimcha belgilangan miqdorlarda ko'p yillik ishlagan davri uchun, shuningdek qonunchilik hujjatlari bilan belgilangan boshqa turdagi har oylik to'lanadigan ustamalar va to'lovlar;

bir martalik hususiyatga ega mukofot va rag'batlantirish to'lovlari;

moddiy qo'llab-quvvatlash maqsadida to'lanadigan moddiy yordamlar;

har oylik oziq-ovqat va transport xarajatlari uchun to'lanadigan kompensatsiya;

o'rindoshlik asosida ishlaganlik uchun hamda vaqtincha ishda bo'lmagan xodimni vazifasini bajarganlik, ishlanmaydigan bayram va dam olish kuni ishlaganlik, ish vaqtidan tashqari ishlagan ish vaqtlari uchun qo'shimcha to'lovlar.

Jamiyatda lavozim maoshi (okladi) Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining tegishli razryadlar bo'yicha belgilanadi.

Xodimlarga quyidagi miqdorda ko'p yillik ishlagan davri uchun har oylik ustama to'lanadi, lavozim maoshiga nisbatan foizlarda:

Ish staji bo'yicha guruh	Ish stajiga ustama miqdori
1 yildan – 3 yilgacha	20 %
3 yildan – 5 yilgacha	40 %
5 yildan – 10 yilgacha	60 %
10 yildan – 15 yilgacha	80 %
15 yildan – 20 yilgacha	100 %
20 yil va undan yuqori	120 %

### 3.2. Samaradorlikning muhim ko'rsatkichlari KPI:

Xodimlarning mehnatiga haq to'lash to'g'risidagi nizom xodimlarga to'lovlarning barcha turlarini o'z ichiga oladi. Jamoa shartnomasida xodimlarni moddiy yordam, mukofotlar, qo'shimcha to'lovlar shaklida qo'shimcha ijtimoiy qo'llab-quvvatlash ko'zda tutilgan, KPI asosida mehnatga haq to'lash tizimi joriy etilgan.

Ijroiya organi uchun alohida nizom tasdiqlangan va mehnatga haq to'lash belgilangan Nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

Samaradorlikning muhim ko'rsatkichlari (keyingi o'rinlarda SMK deb ataladi) Markazning ijro etuvchi organi faoliyati samaradorligini aniqlash uchun foydalaniladigan baholash mezonlarining miqdoriy o'lchovidan iborat bo'ladi.

SMKni hisoblashning davriyligi har oydan iborat bo'ladi va Markazning vakolatli boshqaruv organi qarori bilan belgilanadi.

Buxgalteriya balansi va moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni shakllantirish va topshirish muddatidan qat'iy nazar, Markaz har chorakda SMK bajarilishini hisoblaydi va e'lon qiladi.

Jamiyatning Kuzatuv kengashi qaroriga asosan ijro etuvchi organ faoliyati samaradorligi quyidagicha e'tirof etiladi:

**qoniqarsiz** - SMK miqdori 40 foizdan kam bo'lsa;

**past darajada** - SMK miqdori 40 foizdan 60 (ushbu daraja ham kiradi) foizgacha bo'lsa;

**yetarli darajada emas** - SMK miqdori 60 foizdan 80 (ushbu daraja ham kiradi) foizgacha bo'lsa;

**o'rtacha darajada** - SMK miqdori 80 foizdan 90 (ushbu daraja ham kiradi) foizgacha bo'lsa;

**yetarli darajada** - SMK miqdori 90 foizdan 100 (ushbu daraja ham kiradi) foizgacha bo'lsa;

**yuqori darajada** - SMK miqdori 100 foizdan oshsa.

### 3.3. Daromadlar shakllanishining asosiy ko'rsatkichlari.

ming so'm

№	Ko'rsatkichlar, bajariladigan ishlar, mahsulot nomi	2023	2024 (reja)	O'sish, %
		amalda		
1.	Jami sof tushum (soliqlarsiz)	10 851 449,00	18 724 213,75	27,54
1.	Metrologik xizmatlar	53 794,00	61 863,10	115%
2.	Yoqilg'i me'yorlarini ishlab chiqish	235 617,60	353 426,40	150%
3.	Shaxsiylashtirilgan kartalarni yetkazib berish	10 408 243,70	15 612 365,55	150%
4.	Bosib o'tilgan masofani o'lchsh	33 302,00	43 292,60	130%
5.	Ilmiy tadqiqotlar	120 491,70	2 541 266,10	2109%
6.	Konteynerlarni tekshirish		112 000,00	100%
7.	Brutto og'irlikni tasdiqlash			

#### IV-bob. Xavf-xatarni baholash.

##### 4.1. Xavf-xatarni baholash. Faoliyatni sug'urtalash

Markaz faoliyatini 2024-yilda qarz mablag'larini jalb qilmagan holda, o'z mablag'lari hisobidan amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

Markazda yuzaga kelgan qarzni to'lash uchun garovga qo'yiladigan ko'chmas mulk mavjud emas.

Shu bilan birga, Markaz faoliyati bilan bog'liq xavf holatlari mavjud, masalan:

- mijozlar uchun shartnomalar va shartnomalarni bajarishdan bosh tortish;
- fors-major holatlari (fors-major) tufayli kelishuv va shartnomalarni bajarmaslik;

Ushbu holatlar natijasida Markaz 2024-yilga mo'ljallangan foydaning bir qismidan kamroq miqdorda olinishi mumkin.

Xavfli hodisalarning yuzaga kelish ehtimoli va realligini oshiradigan barcha shart-sharoitlarni minimallashtirish, hisobga olish va mumkin bo'lgan yo'qotishlarga qarshi choralar ko'rish zarur.

Yuqoridagi tavakkalchiliklarning oldini olish maqsadida, Markaz tomonidan quyidagi faoliyat turlari ishlab chiqilgan va amalga oshirilmoqda:


- ustozlik qilish, yetakchi xodimlarga yosh mutaxassislarni biriktirish ishlari olib borilmoqda;
- xodimlarning ishlashi uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi: orgtexnika, kompyuter dasturlari (ilmiy dasturlar) sotib olish; laboratoriya jihozlari; malaka oshirish ishlarini tashkil etish;

Markaz rivojlanib, moliyaviy ahvoli mustahkamlanib borar ekan, xodimlarni ijtimoiy himoya qilish va mehnatini rag'batlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq sug'urta kompaniyasi bilan ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida shartnoma tuzildi.

Jamiyat mulki va xodimlarini sug'urtalashni moliyalashtirish yaratilgan ilmiy-texnikaviy mahsulotlarni sotish va xizmatlar ko'rsatish orqali amalga oshiriladi.

**Direktor**

**U. Iminov**



**Moliya-iqtisod va  
ta'rif bo'limi boshlig'i**

**X. Ataxanova**

Бухгалтерский баланс - форма № 1

на 2023 год 4 квартал

Предприятия, организация "TRANSPORT ILMIY-TADQIQOT MARKAZI"

Отрасль Прочие

Организационно-правовая форма

Форма собственности Государственная

Министерства, ведомства и другие

Идентификационный номер налогоплательщика

Территория ТОШКЕНТ ШАХАР ШАЙХОНТОХУР тумани

Адрес: ZULFIYANONIM KO'CHASI, 3 UY

Единица измерения, тыс. сум.

Форма N 1 по ОКУД Коды

по ОКПО 16580577

по ОКЕД 72200

по КОПФ

по КФС 200

по СООГУ 03943

ИНН 202269195

СОАТО 1726277

Дата высылки 15.02.2024

Дата получения

Срок представления 15.02.2024



## Бухгалтерский баланс - форма № 1

Единица измерения, тыс. сум.

Наименование показателя	Код стр	На начало отчетного периода	На конец отчетного периода
1	2	3	4
<b>Актив</b>			
<b>I. Долгосрочные активы</b>			
